



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.03.2021 yildagi 163-son

Kuchga kirish sanasi

29.03.2021

Qo'shimcha axborot

Ulashish

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI HAQIDA

“Ta'lim to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuniga** muvofiq yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2021/2022 o'quv yilidan boshlab professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

dual ta'limni tashkil etish va uning bosqichlarini;

dual ta'limda o'quv jarayoni va ishlab chiqarish amaliyotini olib borish tartibini;

dual ta'lim ishtirokchilarining vazifalari, huquq va majburiyatlarini belgilash.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar:

har yili 1-martga qadar iqtisodiyot tarmoqlarida tegishli kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni muntazam o'rganib, dual ta'lim tizimini tashkil etish hamda bitiruvchilar bandligini ta'minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni belgilasin;

har yili 1-aprelga qadar dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilotlar bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga takliflar kiritib borsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar:

har yili tasdiqlangan reja asosida o'quvchilarni dual ta'lim dasturlari asosida o'qishga jalb etish bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etsin;

dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilot va professional ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etish yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'ysin hamda kelishilgan o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigini tasdiqlasin;

o'quvchilarni haftada kamida ikki kun professional ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va qolgan ish kunlarida tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta'minlasin;

professional ta'lim muassasalarida dual ta'lim jarayonini tashkil etilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatsin;

dual ta'limni takomillashtirish va metodik ta'minotini mustahkamlash yuzasidan ilg'or xalqaro tajribalarni tizimli o'rganish ishlarini tashkil etsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi har yili tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda dual ta'lim tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalarini belgilasin.

6. O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarning takliflari asosida dual ta'lim bo'yicha professional ta'lim muassasalariga o'quvchilarni o'qishga qabul qilish parametrlari tasdiqlanadi.

7. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

8. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari B.A. Musayev hamda O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri A.H. Toshkulov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2021-yil 29-mart,
163-son

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-
martdagi 163-son qaroriga
ILOVA

Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

tashkilot — professional ta'lim muassasasi bilan dual ta'lim asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha shartnoma tuzgan yuridik shaxs;

dual ta'lim dasturi — professional ta'lim muassasasi va tashkilotda ta'lim oluvchining muayyan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatini va mehnat vazifalarini bajarishiga qaratilgan davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dastur (modul)lari, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti dasturlaridan iborat hujjatlar to'plami;

ish joyi — dual ta'limda ta'lim oluvchiga tashkilotning ichki tartib-qoidalari, tegishli vazifalari hamda ta'lim dasturlariga muvofiq amaliy ko'nikma va malakalarni egallash uchun belgilangan ish o'рни;

o'quv-amaliy qism — dual ta'lim dasturiga muvofiq professional ta'lim muassasasida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar va o'quv amaliyoti;

ustoz — ta'lim jarayonining ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini o'tkazish uchun tashkilot tomonidan o'quvchi(lar)ga birlashtirilgan mas'ul shaxs;

shartnoma — tashkilot va professional ta'lim muassasasi hamda tashkilot va o'quvchi o'rtasida dual ta'limni amalga oshirish uchun tuzilgan hujjat.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Dual ta'lim tashkil etiladigan professional ta'lim muassasalari tizimida professional ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda — vazirlik) tomonidan belgilanadi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)

Oldingi tahrirga qarang.

4. O'quvchilar o'qishga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan qabul parametrlari doirasida vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan alohida

elektron platforma yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali dual ta'lim shakli bo'yicha qabul qilinadi.

(4-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)

5. Kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan o'quvchilarning dual ta'limga o'qishini ko'chirish taqiqlanadi.

Professional ta'lim muassasasi va tashkilot o'rtasida tuzilgan shartnoma bekor qilinganda o'quvchi(lar) o'qishi mos ta'lim darajasidagi kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakliga o'tkaziladi.

2-bob. Dual ta'limni tashkil etish

6. Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish ushbu Nizomga [ilovaga](#) muvofiq sxema asosida amalga oshiriladi.

7. Dual ta'limni tashkil etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilotlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralarning iqtisodiyot tarmoqlarida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirish;

tashkilot va professional ta'lim muassasasi hamda tashkilot va o'quvchi o'rtasida shartnoma tuzish;

hududlarda kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish;

tegishli ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda yangilab borish;

mehnat bozorida o'rta bo'g'in kadrlarga bo'lgan talab va takliflarni doimiy o'rganib borish;

dual ta'lim dasturlari asosida tayyorlanayotgan kadrlarni baholash.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

8. Dual ta'limni joriy etish bo'yicha tashkilot va professional ta'lim muassasasi o'rtasida, o'quvchi va tashkilot o'rtasida rasmiylashtiriladigan shartnomalarning namunasi vazirlik tomonidan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

(8-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)

Tashkilotga bir yoki bir nechta professional ta'lim muassasasi bilan va professional ta'lim muassasasiga ham bir yoki bir nechta tashkilot bilan shartnomalar rasmiylashtirishiga ruxsat beriladi.

Tashkilotda o'quvchilarning dual ta'lim dasturi bo'yicha nazarda tutilgan bilim, ko'nikma va malakani egallashlari uchun yetarli shart-sharoitlar mavjudligi professional ta'lim muassasasi tomonidan shartnoma rasmiylashtirishdan kamida bir hafta oldin o'rganilib, tegishli xulosalar tayyorlanadi.

Professional ta'lim muassasasi tashkilotga ta'lim olmoqchi bo'lgan o'quvchilarni tavsiya etishi mumkin.

Tashkilot bilan o'quvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma nusxasi o'quvchi yoki tashkilot tomonidan taqdim etilgan taqdirda, professional ta'lim muassasasi o'quvchini o'quvchilar safiga qabul qiladi.

9. Professional ta'lim muassasalari tashkilotlar bilan har yili kamida ikki marta dual ta'lim dasturlari bo'yicha o'quvchilarni o'qishga jalb etish maqsadida kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etadilar.

10. Dual ta'lim dasturi vazirlik tomonidan tasdiqlangan o'quv-metodik hujjatlar asosida professional ta'lim muassasasi tomonidan tashkilot bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi.

11. O'qitish davomiyligi, nazariy va amaliy ta'lim muddatlari hamda yakuniy davlat attestatsiyasi tashkilot va professional ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlanadigan o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigi asosida belgilanadi.

O'quv jarayoni grafigida o'quvchilar bir haftada, qoida tariqasida, kamida ikki kun professional ta'lim muassasasida ta'lim dasturining nazariy, o'quv va amaliy qismini, qolgan kunlari ishlab

chiqarish bilan bog'liq amaliy qismlarini tashkilotda o'tkazishlari nazarda tutiladi.

O'quv jarayoni grafigiga muvofiq kasb yoki mutaxassislik bo'yicha o'qitish muddati belgilanadi. O'qitishning davomiyligi kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha tegishli ta'lim dasturlaridan kam bo'lishiga (ko'p bo'lishi mumkin) yo'l qo'yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

12. Tashkilotning tegishli buyrug'i asosida o'quvchi(lar)ga dual ta'lim bo'yicha tashkilotning tajribali xodimlaridan ustoz biriktiriladi.

Ustozga tashkilot tomonidan belgilangan tartibda mehnatga haq to'lash tartibi joriy etiladi.

Dual ta'lim shaklida kasblarning (mutaxassislik) murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda, ta'lim olayotgan har 12 — 15 nafar o'quvchiga qoidaga ko'ra tashkilot tomonidan kamida bir nafar ustoz biriktiriladi. Hunarmandchilikka oid kasblar bo'yicha har 15 nafar o'quvchiga bir nafar ustoz biriktirilishiga ruxsat etiladi.

Ustozning faoliyati tashkilot mutasaddilari tomonidan nazorat qilinadi.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)

13. Tashkilot tomonidan o'quvchilarga biriktiriladigan har bir ustozga to'g'ri keladigan o'quvchilar va ish o'rinlari soni texnologik jarayonlarning murakkablik darajasidan kelib chiqqan holda professional ta'lim muassasasi bilan kelishiladi.

Oldingi tahrirga qarang.

14. O'quvchiga dual ta'lim jarayonida tashkilotdagi mehnat faoliyati uchun tashkilot tomonidan qonunchilik hujjatlariga muvofiq ish haqi to'lanadi.

(14-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Oldingi tahrirga qarang.

15. Dual ta'limning nazariy, o'quv va amaliy qismi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq professional ta'lim muassasasida tashkil etiladi.

(15-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Tashkilotning malakali mutaxassislari mashg'ulotlarni o'tkazishga jalb etiladi.

16. Dual ta'lim jarayoni professional ta'lim muassasasi tomonidan tashkilot bilan kelishgan holda tasdiqlanadigan o'quv rejasi va o'quv jarayoni grafigi asosida tashkil etiladi.

O'quvchilarning ta'lim jarayonining nazariy, o'quv va amaliy qismidagi ishtiroki professional ta'lim muassasasida guruh jurnallarida, ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismidagi ishtiroki tashkilotdagi o'quvchilar kundaligida qayd etib boriladi.

Tashkilot o'quvchilarning ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismidagi ishtiroki yuzasidan qo'shimcha qayd etish hujjatlarini yuritishi mumkin.

17. Professional ta'lim muassasasi va tashkilot o'quvchilarning ishtiroki, o'zlashtirishi, ichki tartib-qoidalarga rioya etishi kabi masalalarda ma'lumot almashinuvini yo'lga qo'yadi.

Oldingi tahrirga qarang.

18. O'quvchilarni baholash va yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

(18-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

19. Vazirlik dual ta'limni tashkil etishda quyidagilarni amalga oshiradi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, vazirliklar va idoralar, texnikumlar biriktirilgan oliy ta'lim muassasalari bilan dual ta'lim tashkil etiladigan tashkilot va professional ta'lim muassasasida ta'lim jarayonini tashkil etish yuzasidan hamkorlikni yo'lga qo'yadi;

dual ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqadi;

dual ta'limni tashkil etish bilan bog'liq o'quv-metodik ta'minot va normativ-huquqiy bazani mustahkamlash choralarini ko'radi;

Oldingi tahrirga qarang.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalarining professional ta'lim muassasalarida dual ta'limni tashkil etish bo'yicha hisobotlarini ko'rib chiqadi;

(19-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrda 647-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)

professional ta'lim muassasalarida dual ta'limning tashkil etilishi yuzasidan monitoring olib boradi.

3-bob. Tashkilot, professional ta'lim muassasasi va o'quvchilarning vazifalari, huquqlari hamda majburiyatlari

20. Tashkilot:

professional ta'lim muassasasi bilan hamkorlikda dual ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini belgilaydi;

professional ta'lim muassasasi bilan birgalikda o'quvchilarni o'qishga qabul qilish boshlanishidan kamida bir oy oldin dual ta'lim bo'yicha tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi;

dual ta'limda o'qitish muddatlarini hamda tashkilotga yuborilayotgan o'quvchilar tarkibini professional ta'lim muassasasi bilan kelishadi;

o'quvchilar bilan shartnomalar tuzadi va professional ta'lim muassasasi bilan kelishilgan muddatlarda o'quvchilarni qabul qiladi;

har bir o'quvchiga dual ta'lim dasturining ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismini o'rgatish uchun yuqori malakali mutaxassis ustozni biriktiradi;

biriktirilgan ustoz tomonidan dual ta'lim dasturi, lavozim yo'riqnomalari va majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi;

o'quvchini o'zlashtirgan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha natijalarini baholash jarayonini tashkil etadi;

o'quvchining kasb yoki mutaxassisliklari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasida qatnashadi.

Oldingi tahrirga qarang.

Tashkilot qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

(20-bandning o'ninchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

21. Tashkilot quyidagi huquqlarga ega:

mashg'ulotlarning nazariy qismi o'qitilishi yuzasidan professional ta'lim muassasasiga murojaat qilish;

dual ta'lim sifatini oshirish yuzasidan professional ta'lim muassasasiga takliflar berish;

normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularning loyihalarini ishlab chiqish yuzasidan takliflar berish;

bir nechta professional ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish.

Oldingi tahrirga qarang.

Tashkilot qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(21-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

22. Tashkilot quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

mashg'ulotlarning nazariy, o'quv va amaliy qismini professional ta'lim muassasasida olib borish uchun sharoit yaratish;

o'quvchilarni mehnat qonunchiligi asosida ishga qabul qilish;

o'quvchilarni tashkilotda ishlab chiqarish bilan bog'liq amaliy qismi davrida aniq ish joyi va zarur jihozlar bilan ta'minlash;

o'quvchilarni tashkilot ustavi, ichki tartib-qoidalar, tibbiy (sanitariya), yong'in xavfsizligi qoidalar hamda boshqa talablar bilan tanishtirish;

o'quvchilarga o'z ustaviga muvofiq amaliy jarayonlarda qatnashishga ruxsat berish;

o'quvchilar kundaligi yuritilishini ta'minlash;

professional ta'lim muassasasi bilan birgalikda dual ta'lim amalga oshirganligi bo'yicha hisobotlarni tayyorlash.

Oldingi tahrirga qarang.

Tashkilot qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

(22-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

23. Professional ta'lim muassasasi:

tashkilot bilan birgalikda o'quvchilarni o'qishga qabul qilish boshlanishidan kamida bir oy oldin dual ta'lim bo'yicha tegishli shartnomalarni rasmiylashtiradi;

tashkilot bilan birgalikda kasb va mutaxassisliklar bo'yicha tegishli vazirliklar va idoralar bilan kelishgan holda tasdiqlangan ta'lim dasturlari asosida dual ta'lim bo'yicha o'quv-metodik hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

tashkilot bilan dual ta'lim muddati hamda o'quvchilarning ro'yxatini tasdiqlaydi;

o'quvchi va tashkilot o'rtasida dual ta'lim bo'yicha tuzilgan shartnomalarni ro'yxatga oladi;

qonun hujjatlariga muvofiq shartnomasi mavjud o'quvchilarni dual ta'lim bo'yicha guruhlariga qabul qilishni tashkil etadi;

dual ta'limni tashkil etish, o'quvchilarni tashkilotga yuborish, o'quvchilarning har bir guruhiga ishlab chiqarish ta'limi ustasi yoki o'qituvchini buyruq asosida biriktiradi;

dual ta'lim dasturini amalga oshirishni ta'minlaydi;

tashkilot bilan o'quvchilarni baholashni va yakuniy davlat attestatsiyasini belgilangan tartibda tashkil etadi;

tashkilot bilan kelishgan holda dual ta'lim yuzasidan hisobotlarni tayyorlaydi va tegishli vazirliklar va idoralar hamda Kasbiy ta'limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmalariga taqdim etadi;

dual ta'lim bo'yicha tegishli vazirliklar va idoralarning buyruqlari va ko'rsatmalarini o'z vaqtida bajaradi.

Oldingi tahrirga qarang.

Professional ta'lim muassasasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

(23-bandning un ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

24. Professional ta'lim muassasasi:

dual ta'limning amaliy qismi o'tilishi bo'yicha tashkilotga murojaat qilish;

dual ta'lim sifatini oshirish yuzasidan tashkilotga takliflar berish;

dual ta'lim jarayonini tashkil etish uchun tuzilgan shartnomalarga tomonlar bilan kelishgan holda o'zgartirishlar kiritish;

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z nomidan yuridik shaxslar bilan vakolati doirasida dual ta'limni tashkil etish bo'yicha shartnomalar va boshqa hujjatlar tuzish;

dual ta'lim bo'yicha to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan tushgan mablag'larni professional ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga va ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy o'quv-texnik

vositalar, mebellar bilan ta'minlashga, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari, xodimlarni ijtimoiy himoyalashga va ularning faoliyati samaradorligini oshirishni rag'batlantirishga sarflash huquqiga ega.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Professional ta'lim muassasasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(24-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

25. Professional ta'lim muassasasi o'ziga quyidagi majburiyatlarni oladi:

o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari faoliyatini nazorat qilish;

iqtisodiyot tarmoqlari va xizmat ko'rsatish sohasida kadrlarga bo'lgan real ehtiyoj asosida dual ta'limni tashkil etish bo'yicha tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borish;

o'quvchi kundaligini nazorat qilish.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

Professional ta'lim muassasasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

(25-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

26. O'quvchilar:

tashkilotning ustaviga muvofiq ish jarayonlarida belgilangan tartibda qatnashadi;

o'quv mashg'ulotlariga nazariy, o'quv va amaliy qismi bo'yicha qatnashadi;

dual ta'lim jarayoni so'ngida yakuniy davlat attestatsiyasini topshiradi.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

O'quvchilar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarni ham bajarishi mumkin.

(26-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

27. O'quvchilar quyidagi huquqlarga ega:

tegishli kasb yoki mutaxassislik bo'yicha bilim olish;

o'quv, texnika jihozlari va vositalaridan, fan kabinetlari axborot-kutubxonasi fondidan, axborot-kutubxona o'quv zali va boshqa o'quv, yordamchi xonalardan, sport majmualari, professional ta'lim muassasasiga qarashli tibbiy va texnik jihozlardan bepul foydalanish;

tashkilotda amaliyot bazalaridan, tashkilotning moddiy-texnik bazasidan foydalanish;

tashkilotdagi mehnat va jamoat ishlarida qatnashish;

dual ta'lim vaqtida tashkilotdan shartnomaga muvofiq ish haqi olish.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

O'quvchilar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

(27-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

28. O'quvchilar o'z zimmasiga quyidagi majburiyatlarni oladi:

tashkilot va professional ta'lim muassasasida belgilangan tartib va qoidalarga rioya qilish;

dual ta'lim jarayonida professional ta'lim muassasasi va tashkilot tomonidan berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish;

o'quvchi kundaligini o'z vaqtida yuritib borish va hisobotlarni topshirish.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

O'quvchilar qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlarni ham bajarishi mumkin.

(28-bandning beshinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Oldingi tahrirga qarang.

3¹-bob. O'quvchilarni yil davomida o'qishga dual ta'lim shaklida qabul qilish tartibi

28¹. Kollej va texnikumlarga o'quvchilar dual ta'lim shakli bo'yicha o'qishga Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalarining takliflari asosida o'quv yili davomida qabul qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari tomonidan dual ta'lim shakli bo'yicha yil davomida bo'ladigan qabul jarayonlari muvofiqlashtiriladi.

28². Yil davomida dual ta'lim shakli bo'yicha o'qishga qabul qilish tartibi kasb-hunar maktablariga tatbiq etilmaydi.

28³. Kollej va texnikumlarga o'qishga qabul qilish muddatlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi.

28⁴. Har o'quv yilida bir marotaba yangi o'quv yili uchun shakllantiriladigan qabul parametrlarida dual ta'lim shakli uchun davlat granti o'rinlari ajratiladi. Qolgan davr mobaynida belgilanadigan qabul parametrlarida o'quvchilar to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilinadi.

28⁵. Dual ta'lim shakli bo'yicha ish beruvchilarning o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan mavjud ehtiyoji asosida taqdim qilingan talabgorlar to'g'ridan-to'g'ri o'qishga qabul qilinadi.

Bunda kollej va texnikumlar tomonidan dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilinadigan o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar elektron platformaga uch ish kunida kiritiladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan elektron platformaga kiritilgan tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar ko'rib chiqiladi hamda besh ish kunida kollej va texnikumlarga dual ta'lim shakli bo'yicha o'qish jarayonlarini tashkil etish bo'yicha tegishli xulosa beriladi.

28⁶. Dual ta'lim shaklida o'qitish bo'yicha takliflar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan elektron platformaga kiritilgan ma'lumotlar ekspertizadan o'tkazilib, besh ish kunida kollej va texnikumda o'quv jarayonlarini tashkil etish bo'yicha ruxsat beriladi.

28⁷. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi xulosasiga ko'ra kollej va texnikum direktori uch ish kunida o'quvchilarni o'qishga qabul qilish bo'yicha tegishli buyruqni qabul qiladi va tashkilot bilan kelishgan holda o'quv jarayoni grafigini tasdiqlaydi.

(3¹-bob O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-sonli qaroriga asosan kiritilgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Dual ta'limda kollej va texnikumlarning kasblar va mutaxassisliklar bo'yicha to'lov-kontrakt miqdori bir o'quvchini o'qitish bilan bog'liq sarf-xarajatlardan kam bo'lmagan miqdorlarda, tegishli vazirliklar va idoralarning takliflari asosida vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

30. Tashkilot:

ichki imkoniyatlardan kelib chiqqan holda o'quvchilarni tashkilotga borish-kelish, ovqatlanish, maxsus kiyim-kechak (forma) hamda ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo, yotoqxona (zarur hollarda) bilan ta'minlash xarajatlarini qoplashi;

professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining malaka oshirishlarini tashkil etishda ishtirok etishi mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

31. Dual ta'lim bilan bog'liq statistik ma'lumotlar idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, professional ta'lim muassasalari tomonidan tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalariga taqdim etiladi.

(31-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)

Oldingi tahrirga qarang.

32. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor boʻlgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

(32-band Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Professional ta'lim tizimida dual
ta'limni tashkil etish tartibi
toʻgʻrisidagi nizomga
ILOVA

Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish
SXEMASI

Oldingi tahrirga qarang.

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar	1. Oʻrta boʻgʻin kadrlariga boʻlgan ehtiyojni aniqlash va ularga qoʻyiladigan talablarni belgilash. 2. Dual taʼlim boʻyicha kadrlar tayyorlashda ishtirok etadigan tashkilotlar boʻyicha taklif tayyorlash.	Oʻquv yili mobaynida
2-bosqich	Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar	Dual taʼlim boʻyicha kadrlar tayyorlaydigan professional taʼlim muassasalarini belgilash.	Oʻquv yili mobaynida
		1. Dual taʼlimni tashkil etish va muvofiqlashtirish bilan bogʻliq choralar koʻrish. 2. Professional taʼlim muassasalarida dual taʼlimni tashkil etish yuzasidan monitoring olib borish.	Oʻquv yili mobaynida
3-bosqich	Professional taʼlim muassasalari, tashkilotlar	1. Dual taʼlimni amalga oshirish boʻyicha shartnoma tuzish. 2. Kasbga yoʻnaltirish ishlarini amalga oshirish hamda dual taʼlim boʻyicha oʻquvchilar qabulini tashkil etish. 3. Dual taʼlimni tashkil etish boʻyicha oʻquv jarayoni grafigini ishlab chiqish.	Oʻquv jarayoni boshlanishidan kamida bir oy oldin
4-bosqich	Tashkilotlar	1. Oʻqitishning amaliy qismini tashkilotda tashkil etish. 2. Oʻquvchiga belgilangan tartibda ish haqi toʻlash.	Oʻquv yili mobaynida
5-bosqich	Professional taʼlim muassasalari, tashkilotlar	1. Tashkilotlar bilan shartnoma imzolagan oʻquvchilarni oʻqishga qabul qilish. 2. Dual taʼlimning nazariy qismini tashkil etish.	Oʻquv yili mobaynida

(ilova Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-dekabrdagi 647-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.03.2021-y., 09/21/163/0250-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)



Tezkor va qulay
onlayn mikroqarz

100 mln

so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha

Kredit muddati: 2-48 oygacha

